

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNI VA ULARNING AFZALLIKLARI

Sobirov Dilshod Solayevich,

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

(tel.: (97) 512 72 56, e-mail: sobirov.d.s@mail.ru)

Annotatsiya. Ta'lim sohasidagi yangi axborot texnologiyalari shaxs rivojlanishining yetakchi omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda raqamli ta'lim texnologiyasining o'rni va ularning afzalliklari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, aloqa, axborot, ta'limni axborotlashtirish, dasturiy ta'minot, elektron resurs, qurilma, pedagogik faoliyat, qobiliyat, kompyuter.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga tadbiq etish, iqtisodiy samara berishi bilan bir qatorda, o'quv jarayonida raqamli o'qitish uslublarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochadi. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash asosan, axborot texnologiyalarining pedagogik-dasturiy vositalari yaratilishi bilan bog'liq.

Bu ma'noda axborot texnologiyalari asosida o'quv materiallarini obrazli ko'rinishda taqdim etishda ularga har xil ko'rinishdagi ranglar, harakat, ovoz kabi elementlarni kiritish o'quvchilarning o'quv materiallarini qabul qilish jarayoni samaradorligini oshirish bilan birga, berilayotgan materiallarni tahlil qilish, taqqoslash hamda abstraksiyalash kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi.

Raqamli ta'lim texnologiyasi bu - kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan ta'lim texnologiyasi. Ta'lim tizimida axborot texnologiyadan foydalanish uning yangi sohasi, ya'ni ta'limning elektron didaktik shakli paydo bo'lishiga asos solib, unda o'quv fanlarining boblarini ajratib, elektron ko'rinishda tasvirlash, elektron ta'lim resursining ma'ruza va amaliy darslar qismini ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish, baholash mexanizmini yaratish va tadbiq etish, elektron qo'llanmalar asosida virtuallikni yaratish va o'quv jarayoniga qo'llash, ularni qo'llash orqali o'qitishning umumiy saviyasini aniqlash kabi imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'qitish amaliyotiga mustahkam kirib bordi. O'ylaymizki, har bir zamonaviy o'qituvchi kamida AKT bo'yicha dastlabki ko'nikmalarga ega bo'lishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi, kelajakda esa o'z kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha barcha turdagi bilimlarni egallashga intilishi kerak.

O'qituvchi darsda AKT dan foydalangan holda o'quvchilarning tafakkurini,

xotirasini, diqqatini, nazoratini, nutqini rivojlantirishi mumkin. Bolalar ma'lumotlardan xulosa chiqarish uchun foydalanishni o'rganadilar. AKT ni o'rganish ijobiy motivatsiyani shakllantiradi, o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi. "Ta'kidlash joizki, ta'lim muassasalarini internet tarmog'iga ulashga katta ahamiyat berilayotgani ta'lim sohasida keng istiqbollarni ochmoqda. Ushbu global tarmoq tufayli mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Internet imkoniyatlaridan to'liq foydalanayotgan ta'lim muassasalari an'anaviy o'qitish usullarini o'zgartirishni boshlaydilar, ularni ta'lim sohasidagi jamoat ehtiyojlariga moslashtiradilar"[1].

Ta'lim tizimida raqamli muhitning integratsiyalashuvi ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zoro munosabatlarida, mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni individual qiziqishlar xilma-xilligi va ijodiy qobiliyatlar o'zgaruvchanligi shaxsda o'zini o'zi anglash komponentlariga didaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan qayta ishlashga o'rgatuvchi mantiqiy topshiriqlar mazmuniga produktiv darajalarda transformatsiyalash asosida mustaqil ishlash faoliyatini shakllantirish bilan bir qatorda, ularning kasbiy muammolarini hal eta olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

O'quvchilar matematik tushunchalarni faqat raqamlar va so'zlarga ishonishdan ko'ra tezroq va osonroq ifoda etishlari mumkin. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda ingliz tilidagi Math10.com platformasining imkoniyatlari har bir o'rganuvchi uchun muhim dasturiy ta'minotga ega. O'quvchilar platformadagi yaratilgan manbalarga qiyinchiliksiz kira oladi. Kognitiv-vizual yondashuv vositalar orqali o'quvchilar matematik tushunchalarni faqat raqamlar va so'zlarga ishonishdan ko'ra tezroq va osonroq ifoda etishlari mumkin. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish mezonlari kognitiv-vizual yondashuv sharoitida animatsion-interaktiv slaydlar yaratish hamda raqamli ta'lim platformasida ortogonal ichki o'zgarishlar va sertifikatlashtirish testlarini murakkabligiga ko'ra maqsadli uyg'unlashtirish asosida elektron resurslarni qurish nazariyasi va amaliyoti yetarlicha asoslab berilgan.

Sifatli ta'lim - nafaqat ishimizga ma'no beruvchi tushunchaning kaliti, balki hayotimizga mazmun bag'ishlaydigan qadriyat. "Bilimdan ortiq boylik, jaholatdan ortiq qashshoqlik yo'q". Ushbu fikr ming yillar davomida aytib kelinadi. Ammo hozirda ushbu haqiqat har qachongidan ham muhimroq. Biz shunday davrda yashayapmizki, har bir insonning muvaffaqiyati, qolaversa, mamlakat rivoji butunlay ta'lim sifatiga bog'liq.

Shunday ekan siz bilan birga "TA'LIM" milliy platformasi bilan tanishib chiqamiz. talim.uz platformasida 2023-yildan boshlab maktab va qo'shimcha ta'lim doirasida barcha yoshdagi bolalar uchun turli xil onlayn ta'lim resurslari ishlab

chiqilgan. Ushbu ekotizimning asosini qiziqarli videolar va eslatmalar, simulyatorlar, shuningdek, turli xil murakkablikdagi interfaol vazifalar formatidagi raqamli darslar kutubxonasi tashkil etadi[3].

maktab.uz – 1-11-sinflar uchun eng yirik umumta'lim onlayn maktabi hamda maktab o'quv dasturi bo'yicha videodarslar va boshqa materiallar platformasi. 2020 yildan boshlab o'quvchilarga eng yaxshi ta'lim olish va ularga baxtli bolalikni ta'minlash uchun yuqori sifatli bepul masofaviy ta'lim tizimini ishlab chiqilgan. Platforma doimiy ravishda to'ldirilib va yangilanib boriladi, shuningdek, reklamadan butunlay xoli. Platforma materiallaridan nafaqat maktab o'quvchilari va ularning ota-onalari, balki o'qituvchilar ham maktablarda dars jarayonida foydalana oladilar. Agar kutubxonadan Siz darslikni "javondan olib", kerakli mavzuni o'zlashtira olsangiz, maktab.uz – bu masofaviy ta'limning to'laqonli ekotizimidir. Nima uchun maktab.uz? Ba'zilar uchun ushbu platforma repetitorning o'rnini bosadigan tizim bo'lsa, boshqalar uchun – uydagi haqiqiy maktabdir.

Demak ta'lim muassalarida raqamli ta'lim muhitni tashkil qilinishi va raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari shakillantiradi va axborot texnologiyalari yordamida ta'limni rivojlantiradi hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy bilim berishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Винницкая М.А. Концепция компьютеризации в сфере высшего образования / М.А.Винницкая, К.Л.Гончарова// Иностранные языки в школах Казахстана. - 2007. - №4. - С. 11-15.

2. Qayumova Gavhar Abdushukurovna. Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish. PhD-Avtoreferat. Toshkent-2023

3. <https://talim.uz/uz> - O'rta ta'limning yangilangan mazmuni o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan maktab fanlari bo'yicha interaktiv darslar

4. <https://maktab.uz/> - Videodarsliklar kutubxonasi